



TOSHKENT
REPUBLICAN STOCK EXCHANGE

BIRJAVIY TAHLIL

AVGUST/2024

+998(71)267-0842

WWW.UZSE.UZ

100170, O'ZBEKISTON, TOSHKENT,
MUSTAQILLIK SHOH KO'CHASI, 107-UY

Mundarija

BIRJAVIY SAVDOLAR.....	3
Birjaviy savdolar tahlili	4
Birjaviy savdo maydonlari tahlili	5
"Bond Market" obligatsiyalar bozori	6
"UZSE Repo" REPO bozori.....	7
Main Board bo'yicha Top 10 aksiya	7
Tarmoqlar tahlili.....	9
Aksiya emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvi	10
Birja kotirovkalash varag'i.....	11
Savdo narxlari o'zgarishi tahlili	12
LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONI	13
LTSMda savdolar tahlili.....	14
LTSM savdo maydonlari tahlili.....	15
Aksiyalar bozori "FoP Board" maydoni	16
LTSM Main Board bo'yicha Top 5 aksiya	16



TOSHKENT
REPUBLICAN STOCK EXCHANGE


BIRJAVIY SAVDOLAR

AVGUST

Birjaviy savdolar tahlili

2024 yilning avgust oyi davomida "Toshkent" RFB savdo maydonlarida birja kotirovkalari varag'iga kiritilgan emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan jami 16,38 mlrd so'mlik 37 687 ta bitim tuzildi. Bitimlar obyektlari 59 ta emitentning 744,36 mln dona qimmatli qog'ozlari bo'ldi.

2024 yil Avgust oyi bo'yicha savdolar hajmi va bitimlar soni



Yakunlangan oy davomida eng ko'p bitimlar 29 avgustda tuzilgan bo'lib, 3 715 donani; eng kam bitimlar esa 22 avgust sanasida tuzilgan bo'lib, ularning soni 600 donani tashkil etdi. Bitimlarning eng katta hajmi 26 avgustda qayd etilgan bo'lib, kun davomida jami 5,98 mlrd so'mlik bitimlar amalga oshirilgan.

Avgust oyida tuzilgan bitimlarning o'rtacha kunlik soni 1 713 tani va o'rtacha kunlik hajmi esa 744,39 mln so'mni tashkil etdi. Oy davomida "Stock Market" aksiyalar bozorining "Main Board" savdo maydonidagi bitimlarning o'rtacha kunlik hajmi 305,77 mln so'mni tashkil etdi.

Hisobot oyida "Stock Market" aksiyalar bozorining "Nego Board" platformasida 7,16 mlrd so'mlik 23 ta bitim tuzildi. Shuningdek, "Repo Market" aksiyalar bozorining "Repo Nego Board" platformasida umumiy qiymati 210,11 ming so'mlik 2 ta bitim tuzildi.

"Bond Market" obligatsiyalar bozorining "Main Board" platformasida umumiy qiymati 2,49 mlrd so'mlik 327 ta bitim tuzildi.

Birjaviy savdo maydonlari tahlili


2024 yilning avgust oyi yakunida "Stock Market" aksiyalar bozorining G1 - "Main Board" savdo maydonida 55 ta emitentning jami 6,73 mlrd so'mlik aksiyalari bilan 37 335 ta bitim tuzildi.

Bozor	Savdo maydoni	Bitimlar soni	Qimmatli qog'ozlar soni	Bitimlar hajmi, so'm
UZSE STOCK	Main Board	37 335	596 153 650	6 726 911 006,76
	Nego Board	23	148 187 192	7 157 712 985,22
UZSE REPO	Repo Nego Board	2	40	210 105,12
UZSE BOND	Main Board	327	16 354	2 491 846 088,08
JAMI		37 687	744 357 236	16 376 680 185,18


Aksiyalar bozorining G1 - "Main Board" bo'limida bitimlarning eng katta hajmi "O'zRTXB" AJning 650 dona /URTS/ oddiy aksiyalari bilan 2,28 mlrd so'mlik bitim tuzildi. Nominal qiymati 630,00 so'mni tashkil etuvchi qimmatli qog'ozlarning savdo narxi 14 300,00 so'm va 16 949,00 so'm orasini tashkil etdi.

T1 – "Nego Board" savdo bo'limida 7,16 mlrd so'mlik 4 ta emitent bilan 23 ta bitim qayd etildi. Ushbu bo'limda tuzilgan bitimlarning eng katta hajmi "OCTOBANK" AJning /OCBK/ qimmatli qog'ozlari bilan bo'lib o'tgan 5,00 mlrd so'mlik bitimga to'g'ri keldi.

Aksiyalar bozorining Main Board maydonida bo'lib o'tgan bitimlar soni, dona



Aksiyalar bozorining Main Board maydonida bo'lib o'tgan bitimlar hajmi, mlrd so'm



Ushbu hujjat faqat ma'lumot uchun taqdim etilgan va qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha taklif, xususan, ularni sotib olish yoki sotish bo'yicha taklifni tashkil etmaydi.

"Bond Market" obligatsiyalar bozori

Hisobot davri yakuniga ko'ra, "Bond Market" obligatsiyalar bozorida 4 ta qarz instrumentlari bilan umumiy qiymati 2,49 mlrd so'mlik 327 ta bitim tuzildi:

— BFMT3V2 ("Biznes finans mikromoliya tashkiloti" MChJ) – 1,55 mlrd so'mlik 274 ta bitim;

— IFMT4 ("Imkon finans mikromoliya tashkiloti" AJ) – 930,99 mln so'mlik 45 ta bitim;

— IFMT3 ("Imkon finans mikromoliya tashkiloti" AJ) – 7,82 mln so'mlik 7 ta bitim;

— BFMT3 ("Biznes finans mikromoliya tashkiloti" MChJ) – 970,00 ming so'mlik 1 ta bitim;

Bugungi kunda "Toshkent" RFB birja kotirovkalari varaqasida 7 ta emitentning 10 ta qarz qimmatli qog'ozlari mavjud.

№	Emitent	Tikker	Emissiya sanasi va so'ndirilish sanasi	Kupon stavkasi	Bitta bondning nominal qiymati (so'm)	Emissiya qilingan bondlar soni
1	"Asia Alliance Bank" ATB	AABK1	15.07.2019-15.07.2026	MB asosiy stavkasiga +4%	1 000 000,00	45 175
2	"Kapitalbank" ATB	KPB4	13.05.2020-21.05.2027	MB asosiy stavkasiga +5%	1 000 000,00	50 000
3	"Biznes finans mikromoliya tashkiloti" MChJ	BFMT3	16.09.2022-30.08.2025	27,00%	1 000 000,00	6 565
		BFMT3V2	09.10.2023-13.09.2026	27,00%	100 000,00	200 000
4	"Imkon finans mikromoliya tashkiloti" AJ	IFMT3	10.04.2023-25.03.2026	28,00%	1 000 000,00	6 000
		IFMT4	24.04.2024-09.04.2027	28,00%	1 000 000,00	10 000
5	"Hamkor invest lizing" MChJ	HKIL3	25.04.2023-06.05.2026	18,00%	1 000 000,00	17 500
6	"Hamkorbank" ATB	HMBK1	30.04.2024-30.04.2025	22,00%	1 000 000,00	50 000
7	"O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" AJ	IQMK	20.12.2023-17.10.2026	19,00%	1 000 000,00	140 000
		IQMK3V2	17.07.2024-08.07.2024	19,00%	1 000 000,00	150 000

“UZSE Repo” REPO bozori

2024 yilning avgust oyida 2 ta tashkilotning qimmatli qog'ozlari bilan 15 kunlik repo operatsiyalari amalga oshirildi – “O'zRTXB” AJ /URTS/ va “O'zmetkombinat” AJ /UZMK/.


20 avgust kuni “O'zRTXB” AJ /URTS/ tomonidan chiqarilgan 126 566,66 so'mlik 10 ta oddiy aksiyalari bilan bitim bo'lib o'tdi. 22 avgust kuni umumiy qiymati 83 538,46 so'mga teng bo'lgan Repo operatsiyasi “O'ZMETKOMBINATI” AJning /UZMK/ 30 dona oddiy aksiyalari bilan amalga oshirildi. Qimmatli qog'ozlar bilan teskari bitim mos ravishda 4 sentyabr va 6 sentyabr kuni bo'lib o'tadi.

No	Emitent	Tiker	Bitim sanasi	Qimmatli qog'ozlar soni, dona	Bitimlar hajmi, so'm
1	AO «O'zRTXB»	URTS	20.08.2024	10	126 566,66
2	AO «O'ZMETKOMBINATI»	UZMK	22.08.2024	30	83 538,46

Main Board bo'yicha Top 10 aksiya

2024 yil avgust oyida “Toshkent” RFBning “Stock Market” aksiyalar bozorining G1- “Main Board” maydonida tuzilgan bitimlar soni va hajmi bo'yicha top 10 aksiyalar.

Bitimlar hajmi bo'yicha Top 10 aksiya, mlrd so'm



Avgust oyi bo'yicha 2,28 mlrd so'mga teng bo'lgan eng katta hajmdagi bitimlar "O'zRTXB" AJning /URTS/ oddiy aksiyalar bilan qayd etilgan. Undan keyingi o'rinlarni mos ravishda 1,26 mlrd va 634,51 mln so'mga teng bo'lgan "MATBUOT TARQATUVCHI" AJning /MATA/ va "Universal bank" ATBning /UNVB/ oddiy aksiyalari bilan tuzilgan bitimlar egallagan. Yuqori 10 talikni "Ipak Yo'li" AITBning /IPKY/ hamda "O'ZQEQ" AJning /UQEQ/ oddiy aksiyalari bilan tuzilgan mos ravishda 128,02 mln va 124,10 mln so'mlik bitimlar yakunladi.

Bitimlar soni bo'yicha Top 10 aksiya, dona



Eng ko'p bitimlar "IPOTEKA-BANK" ATIBning /IPTB/ aksiyalari bilan tuzilgan bo'lib, oyiga 20 554 dona bitimni tashkil etdi. 1 301 ta bitim bilan "Kvarts" AJning /KVTS/ aksiyalari Top 10 talikda ikkinchi o'rinni egalladi. Keyingi o'rinlarni "Qizilqumsement" AJning /QZSM/ va "Ipak Yo'li" AITBning /IPKY/ aksiyalari bilan mos ravishda tuzilgan 1 140 va 1 104 bitimlar egalladi. Yuqori o'ntalikni "IPOTEKA-BANK" ATIBning /IPTBP/ imtiyozli aksiyalari va "Chilonzor buyum savdo kompleksi" AJning /CBSK/ oddiy aksiyalari bilan mos ravishda tuzilgan 756 ta va 746 ta bitimlar yakunlagan.

Tarmoqlar tahlili

Bitimlar hajmi bo'yicha iqtisodiy tarmoqlar ichida bank va boshqa sohalar qimmatli qog'ozlari yetakchi bo'ldi. Bank sohasi emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlar hajmi 6,84 mlrd so'mni tashkil etdi, bu umumiy birja aylanmasining 41,77%ni tashkil etdi. Boshqa iqtisodiy sohaga taaluqli kompaniyalar qimmatli qog'ozlari bilan – 6,10 mlrd so'm hamda energetika majmuasiga

kiruvchi tashkilotlarning qimmatli qog'ozlari bilan – 1,05 mlrd so'mlik bitimlar qayd etildi. Eng kam hajmdagi bitimlar esa "Transport" sektoriga tegishli emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan amalga oshirilgan bo'lib, 79,55 ming so'mni yoki umumiy birja aylanmasining 0,0005%ni tashkil etdi.

2024-yil Avgust oyida iqtisodiy sohalar bo'yicha bitimlar hajmi, mlrd so'm

■ Banklar (41,77%)

■ Boshqalar (37,24%)

■ Energetika (6,42%)

■ Agrosanoat (6,12%)

■ Sanoat (5,02%)


■ Qurilish (1,89%)

■ Aloqa (0,93%)

■ Sug'urta (0,61%)

■ Lizing (0,01%)

■ Transport (0,00%)



2024-yil Avgust oyida iqtisodiy sohalar bo'yicha bitimlar soni, dona

Banklar	27 170
Qurilish	2 576
Sanoat	2 116
Boshqalar	1 887
Aloqa	1 505
Sug'urta	1 114
Energetika	858
Agrosanoat	380
Lizing	56
Transport	25


Eng ko'p bitimlar soni bank sektori emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bo'lib, 27 170 ta bitimni tashkil etdi. Qurilish sohasidagi emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan 2 576 dona, "Sanoat" sohasiga aloqador emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan esa 2 116 ta bitim tuzildi. Iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha eng kam bitimlar soni "Lizing" tarmog'ida – 56 dona, va "Transport" sohasida – 25 donaga teng bo'lgan emitentlarning qimmatli

qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlarga to'g'ri keldi.

Aksiya emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvi

Hisobot davrida birja kotirovkalari ro'yxatiga kiritilgan aksiya emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvida 229,65 trln so'mdan 237,46 trln so'mgacha bo'lgan diapazonda o'zgarishlar qayd etildi.

2024 yil Avgust oyi uchun birja kotirovkalari ro'yxatiga kiritilgan emitentlarning umumiy bozor kapitallashuvi, trln so'm



Bozor kapitallashuvining eng katta hajmi 2 avgustga to'g'ri kelib, 237,46 trln so'mgacha ko'tarilgan. Bozor kapitallashuvining eng past qiymati 14 avgust kuni qayd etilgan bo'lib, ushbu davrda emitentlarning umumiy bozor kapitallashuvi 229,65 trln so'mni tashkil etgan. Shuni ta'kidlash joizki, hisobot davrida umumiy bozor kapitallashuvi kichik tebranishlar bilan barqarorlikni namoyish etdi.

2024 yil 30 avgust holatiga ko'ra, birja kotirovkalari varag'iga kiritilgan aksiya emitentlarning umumiy bozor kapitallashuvi 236,51 trln so'mni tashkil etdi. Oy boshi bilan solishtirganda ushbu ko'rsatkich 0,49 foizga oshgan. Davr oxirida aksiya emitentlari soni 101 donaga yetdi.

Birja kotirovkalash varag'i

2024 yil 1 avgust holatiga ko'ra, birja kotirovkalari varag'ida 102 ta emitentning 155 ta instrumentlari mavjud edi.

Joriy oyda "Toshkent" RFB birja kotirovkalash varag'ida delisting jarayoni amalga oshirilmadi.


Joriy davr davomida, 3 ta emitentning 5 ta instrumentlari birja kotirovkalash varag'iga kiritildi:

№	Emitent	Qimmatli qog'o'z kodi	Qimmatli qog'oz turi	Tiket	Listingga kiritilgan sana
1	«O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi» AJ	UZ7056880014	Oddiy aksiya	IQMK	08.08.2024
		UZ6056887AA1	Qarz qimmatli qog'ozlari	IQMK3	08.08.2024
		UZ6056887AB9	Qarz qimmatli qog'ozlari	IQMK3V2	08.08.2024
2	«93-MAXSUS TREST» AJ	UZ7012480008	Oddiy aksiya	MXUS	19.08.2024
3	«TASHGIPROGOR» AJ	UZ7036730008	Oddiy aksiya	TGPG	22.08.2024


Natijada, 2024 yil 30 avgust yakuniy holatiga ko'ra, birja kotirovkalari varaqasida 105 ta emitentning 160 ta instrumenti mavjud bo'lib, ulardan: 101 tasi aksiyalar, ulardan 3 tasi obligatsiyalar emitentlari; 4 ta emitent - faqat obligatsiya emitentlari hisoblanadi.

Listing toifalari bo'yicha aksiya bozorining birja bitimlari to'g'risidagi ma'lumot

Bitimlar soni, dona



Bitimlar hajmi, mlrd so'm



Ushbu hujjat faqat ma'lumot uchun taqdim etilgan va qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha taklif, xususan, ularni sotib olish yoki sotish bo'yicha taklifni tashkil etmaydi.

Savdo narxlarini o'zgarishi tahlili

2024 yil Avgust oyidagi eng likvid qimmatli qog'ozlar** narxidagi o'zgarishlar*

№	Emitent nomi Tikker	01.08.2024 yildagi yopilish narxi	30.08.2024 yildagi yopilish narxi	Narxlar o'zgarishi	Yopilish narxi dinamikasi
1	AJ "Qizilqumsement" QZSM	1 646,70	1 999,00	21,39%	
2	ATB "Hamkorbank" HMKBP	21,07	22,26	5,65%	
3	AITB "Ipak Yo'li" IPKY	191,00	200,03	4,73%	
4	ATB "Hamkorbank" HMKB	25,00	25,49	1,96%	
5	AJ "Chilonzor buyum savdo kompleksi" CBSK	1,69	1,71	1,18%	
6	AJ "Kvarts" KVTS	929,90	940,00	1,09%	
7	AJ "O'zmetkombinat" UZMK	4 049,00	4 000,00	-1,21%	
8	ATIB "Ipoteka-bank" IPTBP	3,69	3,50	-5,15%	
9	AJ "O'zbektelekom" UZTL	4 869,00	4 500,00	-7,58%	
10	ATIB "Ipoteka-bank" IPTB	1,16	1,05	-9,48%	

* Hisobot oyidagi birinchi bitimning ochilish narxlarini va oxirgi bitimning yopilish narxlarini taqqoslangan.

**Bitimlar soni bo'yicha top 10ta qimmatli qog'ozlar eng likvidli qimmatli qog'ozlar sifatida qabul qilingan (8-bet)

Joriy yilning avgust oyi boshidagi aksiyalarning yopilish narxi bilan 30 avgustdagi yopilish narxini solishtirsak, eng ko'p savdo qilingan aksiyalar orasida beshta emitent qimmatli qog'ozlari narxi $\blacktriangle 1,09\%$ dan $\blacktriangle 21,39\%$ gacha oshgani qayd etildi. Narxlarning sezilarli o'sishini $\blacktriangle 21,39\%$ bilan "Qizilqumsement" AJning /QZSM/ oddiy aksiyalari ko'rsatdi. Shuningdek, "Hamkorbank" ATBning /HMKBP/ imtiyozli va /HMKB/ oddiy aksiyalari mos ravishda $\blacktriangle 5,65\%$ va $\blacktriangle 1,96\%$ ga oshdi. Bundan tashqari, "Ipak Yo'li" AITBning /IPKY/, "Chilonzor buyum savdo kompleksi" AJning /CBSK/ va "Kvarts" AJning /KVTS/ aksiya narxlarini mos ravishda $\blacktriangle 4,73\%$, $\blacktriangle 1,18\%$ va $\blacktriangle 1,09\%$ ga oshdi.

Narxlarning pasayishi "O'zmetkombinat" AJning /UZMK/ va "O'zbektelekom" AJning /UZTL/ oddiy aksiyalari bilan qayd etildi, pasayish diapazoni $\blacktriangledown 1,21\%$ va $\blacktriangledown 7,58\%$ ga teng. Shuningdek, "Ipoteka-bank" ATIBning imtiyozli /IPTBP/ va oddiy /IPTB/ aksiya narxlarini mos ravishda $\blacktriangledown 5,15\%$ va $\blacktriangledown 9,48\%$ ga arzonlashdi.



TOSHKENT
REPUBLICAN STOCK EXCHANGE

LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONI



AVGUST

LTSMda savdolar tahlili

Ko'rib chiqilayotgan davrda "Toshkent" RFBning listingdan tashqari savdo maydonlarida 71 ta emitentning 790,22 mln dona qimmatli qog'ozlari bilan jami 780,24 mlrd so'mlik 2 849 ta bitimlar qayd etildi.

Kundalik hisobda eng ko'p bitimlar 6 avgust kuni amalga oshirilgan bo'lib, 187 donani; eng kichigi esa 16 avgustda qayd etilgan bo'lib, 80 dona bitimni tashkil etgan. Bitimlarning eng katta hajmi 15 avgust kuniga to'g'ri kelib, kun davomida 777,62 mlrd so'mdan ortiq bitimlar amalga oshirilgan.

Avrust oyida o'rtacha kunlik savdo bitimlari soni 130 ta bitimni; o'rtacha kunlik savdolar hajmi 35,47 mlrd so'mni tashkil etdi. O'tgan oyga nisbatan o'rtacha kunlik bitimlar soni 29 taga kamayganiga qaramay, o'rtacha kunlik bitimlar hajmi 8,2 martaga oshgan.




LTSM savdo maydonlari tahlili

“SME Stock” aksiyalar bozorining G1 – “Main Board” listingdan tashqari asosiy savdo maydonida 69 ta emitentning aksiyalari bilan jami 2,63 mlrd so'mlik 2 847 ta bitimlar qayd etildi.

Bozor	Savdo maydoni	Bitimlar soni	Qimmatli qog'ozlar soni	Bitimlar hajmi, so'm
SME STOCK	Main Board	2 847	12 617 580	2 629 656 460,61
	FoP Board	1	777 603 232	777 603 232 000,00
SME BOND	Main Board	1	10	10 000 000,00
JAMI		2 849	790 220 822	780 242 888 460,61

Aksiyalar bozorining “Main Board” va “FoP Board” savdo maydonlari bo'yicha umumiy hajmi 780,23 mlrd so'mga teng bo'lgan 2 848 ta bitim tuzildi, bu listingdan tashqari savdo maydoni umumiy bitimlar hajmining 99,99% ni tashkil etdi.

Aksiyalar bozorida G1- “Main Board” savdo maydonida bitimlarning eng katta hajmi “OHANGARONSEMENT” AJning umumiy qiymati 2,28 mlrd so'm bo'lgan 5,82 ming dona /OOSM/ aksiyalar bilan savdolar amalga oshirildi. Aksiyalarning nominal qiymati 1 000,00 so'mga teng bo'lib, bir dona aksiya uchun savdo narxi 391 958,76 so'mni tashkil etdi.



Ushbu hujjat faqat ma'lumot uchun taqdim etilgan va qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha taklif, xususan, ularni sotib olish yoki sotish bo'yicha taklifni tashkil etmaydi.


Aksiyalar bozori "FoP Board" maydoni

Joriy yilning avgust oyida "FoP Board" listingdan tashqari savdo maydoni seksiyasida 777,60 mlrd so'mlik 1 ta bitim tuzildi, bu umumiy birja bitimlari hajmining 99,66 foizini tashkil etdi.

2024 yil 15 avgust kuni "Stock Market" listingdan tashqari aksiyalar bozorining "FoP Board" savdo platformasida "NBU INVEST GROUP"

AJning /A056870/ qimmatli qog'ozlari bilan 777,60 mlrd so'mlik 1 ta bitim tuzildi. Bitimlar davomida 777,60 mln dona oddiy aksiyalar realizatsiya qilindi va aksiyalarning savdo bahosi nominal qiymatiga teng bo'lib, bir dona aksiya 1 000,00 so'mni tashkil etdi.


FoP Board maydonining umumiy bitimlar hajmidagi ulushi, %



Main Board bo'yicha Top 5 aksiya

"Toshkent" RFBning "SME Stock" aksiyalar bozorining G1- "Main Board" listingdan tashqari savdo maydonida tuzilgan bitimlar soni va hajmi bo'yicha Top 5 aksiyalar.


Bitimlar soni bo'yicha Top 5 aksiya, dona



Ushbu hujjat faqat ma'lumot uchun taqdim etilgan va qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha taklif, xususan, ularni sotib olish yoki sotish bo'yicha taklifni tashkil etmaydi.

Eng ko'p bitimlar soni "Uzsanoateksport" AJning /A056290/ aksiyalari bilan tuzilgan 419 dona bitimga to'g'ri keldi. 219 ta bitim bilan "Universal Sug'urta" AJning /A055380/ aksiyalari Top-5likdan ikkinchi o'rinni egalladi. Top-5likni "KAFOLAT" AJning /OKFS/ oddiy aksiyalari bilan tuzilgan 180 ta bitim yakunladi.

Bitimlar hajmi bo'yicha Top 5 aksiya, mln so'm



Bitimlarning eng katta hajmini "OHANGARONSEMENT" AJning /OOSM/ aksiyalari 2,28 mlrd so'mlik bitimlar bilan tashkil etdi. Undan keyingi o'rinlarni "TOSHKENTVINO KOMBINATI" AJning /A028090/ va "TDM" AJning /A026980/ aksiyalari, tegishli ravishda 164,28 mln so'm va 31,86 mln so'mlik oddiy aksiyalar bilan tuzilgan bitimlar egalladi.